

UO'K316.42

IJTIMOIY MAS'ULIYAT TUSHUNCHASI VA UNING ZARURIYATI

G'ulomova Nilufar Hamidillo qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

Email: gulomovanilufar088@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy mas'uliyat tushunchasining nazariy, psixologik va sotsiologik asoslari tahlil qilinadi. Inson faoliyatining barcha sohalarida ijtimoiy mas'uliyatning o'rni, uning shaxsiy, kasbiy va davlat darajasidagi ifoda shakllari ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Muallif ijtimoiy mas'uliyatni insonning o'z xatti-harakatlari oqibatini anglash, jamiyat manfaatlarini hisobga olish va vijdoniy javobgarlikni his etish qobiliyati sifatida talqin etadi. Maqolada shuningdek, mas'uliyatning shaxsda shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar, empatiya, o'zini anglash va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Korporativ hamda davlat miqyosidagi ijtimoiy mas'uliyatning mohiyati tahlil qilinib, ularning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy mas'uliyat, javobgarlik, shaxs, jamiyat, axloqiy qadriyatlar, psixologik omillar, korporativ mas'uliyat, barqaror taraqqiyot.

Гуломова Нилуфар Хамидилло кызы

Магистрант Намаганского государственного университета

ПОНЯТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ И ЕЁ
НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические, психологические и социологические основы понятия социальной ответственности. Освещается роль социальной ответственности во всех

сферах деятельности человека, её проявления на личностном, профессиональном и государственном уровнях с научной точки зрения.

Автор рассматривает социальную ответственность как способность человека осознавать последствия своих поступков, учитывать интересы общества и чувствовать нравственную ответственность.

В статье также показано влияние психологических факторов на формирование ответственности личности, её связь с эмпатией, самопознанием и моральными ценностями. Проанализирована сущность корпоративной и государственной социальной ответственности, а также обосновано их значение для устойчивости и развития общества.

Ключевые слова: социальная ответственность, ответственность, личность, общество, моральные ценности, психологические факторы, корпоративная ответственность, устойчивое развитие.

G'ulomova Nilufar Hamidillo qizi

Master's Student, Namangan State University

THE CONCEPT OF SOCIAL RESPONSIBILITY AND ITS NECESSITY

Annotation: This article analyzes the theoretical, psychological, and sociological foundations of the concept of social responsibility. It highlights the role of social responsibility in all spheres of human activity and explains its manifestations at the personal, professional, and governmental levels from a scientific perspective.

The author interprets social responsibility as a person's ability to understand the consequences of their actions, take into account the interests of society, and feel moral accountability.

The article also demonstrates the psychological factors influencing the development of responsibility in an individual, and its connection with empathy, self-awareness, and moral values. The essence of corporate and governmental social

responsibility is examined, and their significance for social stability and sustainable development is substantiated.

Keywords: social responsibility, accountability, personality, society, moral values, psychological factors, corporate responsibility, sustainable development.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining barcha sohalari tobora murakkablashib, ijtimoiy munosabatlar tizimi kengayib bormoqda. Bu jarayonda har bir shaxsning jamiyatdagi oʻrni, uning maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarga munosabati, shuningdek, oʻz harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini anglash darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy masʼuliyat tushunchasi inson va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikning markaziy kategoriyalaridan biridir. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov oʻzining “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asarida masʼuliyat tushunchasiga quyidagicha taʼrif berganlar: “Maʼnaviy jihatdan barkamol inson-bu avvalo oʻzining har bir ishi, har bir soʻzi uchun javob berishni biladigan, oʻz yurti va xalqiga nisbatan masʼuliyatni his etadigan insondir”, “Ziyolilar xalq ongini yorituvchi kuchdir. Ularning masʼuliyati faqat oʻzlari uchun emas, balki butun jamiyat oldida nihoyatda katta”[1]. Qolaversa, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan masʼuliyat va uning jamiyat hayotidagi zaruriyati dolzarb masala ekanligini koʻp taʼkidlaydilar: “Eng havfli narsa – masʼuliyatsizlik va befarqlik. U ishonchni yoʻqotadi, tizimni zaiflashtiradi”, “Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda har bir fuqaro faol, masʼuliyatli boʻlishi kerak. Chunki oʻzgarishlar faqat yuqoridan emas, har bir insonning ichidan boshlanadi”[2]. Ijtimoiy masʼuliyat — bu insonning oʻz xatti-harakatlari, qaror va faoliyatining ijtimoiy natijalarini anglab, jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan javobgarlikni his etish holatidir. U faqat huquqiy majburiyat emas, balki axloqiy, maʼnaviy, psixologik va madaniy masʼuliyatni ham oʻz ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi globallashtirish davrida ijtimoiy masʼuliyatning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki insoniyat duch kelayotgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy va maʼnaviy muammolarni hal etish uchun har bir individ, tashkilot va davlat oʻz

zimmassidagi mas'uliyatni anglab, unga muvofiq harakat qilishi zarur. "Ijtimoiy mas'uliyat" atamasi lotincha "responsum" — javob berish so'zidan kelib chiqqan. U shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun javob berish qobiliyatini bildiradi. Falsafiy ma'noda mas'uliyat — bu shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'z o'rnini anglash, o'z xatti-harakatlarini baholash va ularning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatidir. Mas'uliyat tushunchasiga Sharq mutafakkirlarining qarashlari quyidagicha: Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida "Mas'uliyat-fozil jamiyatning tayanchi", Alisher Navoiy "Mas'uliyat- bu insoniylikning oliy ko'rinishi", Imom G'azzoliy "Mas'uliyat-bu vijdon va e'tiqodning birligi", Amir Temur "Mas'uliyat – adolatning tayanchi", Jaloliddin Rumiy "Haqiqiy mas'uliyat qalbdan boshlanadi", Bahouddin Naqshband "Mehnatsevarlik va pok niyat – mas'uliyatning asosi".

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur mavzuni o'rganishda ijtimoiy falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlarining nazariy tamoyillari asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik asosi shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlari, insonning ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish jarayonlarini ilmiy tahlil qilishga yo'naltirilgan. Metodologik manba sifatida O'zbekiston Respublikasining Ma'naviy-ma'rifiy siyosati, Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqlari, Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari, hamda Sharq mutafakkirlarining axloqiy-falsafiy qarashlariga tayaniladi.

Ushbu yondashuvlar ijtimoiy mas'uliyatning mohiyatini chuqur ochib berish, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, shuningdek, shaxsning ma'naviy kamoloti uchun zarurligini ilmiy asosda isbotlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Mas'uliyatning ikki asosiy shakli mavjud: Ichki mas'uliyat — insonning o'z vijdoni, axloqiy qadriyatlari va ichki ishonchiga asoslangan javobgarlik. Tashqi mas'uliyat—jamiyat, qonun, jamoa yoki tashkilot tomonidan belgilangan majburiyatlar majmui. Har ikki shakl uyg'unlashgan holda shaxsning ijtimoiy ongi va faolligini belgilaydi. Psixologiya nuqtayi nazaridan ijtimoiy mas'uliyat insonning

empatiya, vijdon, o'zini anglash, va axloqiy me'yorlarni qabul qilish kabi shaxsiy sifatlari bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy mas'uliyatli shaxs boshqalar his-tuyg'ularini inobatga oladi, o'z harakatlarini ijobiy ijtimoiy natijalarga yo'naltiradi. Mas'uliyatni shakllantiruvchi psixologik omillar: Oila tarbiyasi va ijtimoiy muhit; Qadriyatlar tizimi; O'z-o'zini nazorat qilish darajasi; Empatik sezgirlik; O'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida his qilish. Falsafiy adabiyotlarda ijtimoiy mas'uliyat erkinlik bilan uzviy bog'liq deb qaraladi. Inson erkin qaror qabul qilganda, shu bilan birga o'z tanlovining oqibatlari uchun mas'ul bo'ladi. Mas'uliyat erkinlikning "axloqiy soyasi"dir. Sotsiologik yondashuvda esa ijtimoiy mas'uliyat jamiyat barqarorligini ta'minlovchi mexanizmdir. U ijtimoiy nazorat, qadriyatlar tizimi, jamoatchilik fikri va ijtimoiy institutlar orqali namoyon bo'ladi. Shaxsiy mas'uliyat insonning o'z hayoti, xulqi, qarorlari va atrofdagilarga munosabati uchun javobgarligini bildiradi. U quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi: Oila oldidagi mas'uliyat (farzand tarbiyasi, o'zaro hurmat); Kasbiy mas'uliyat (mehnat intizomi, halollik, professional etika); Axloqiy mas'uliyat (vijdon, insoniy qadriyatlarga sadoqat). Masalan, psixolog faoliyatida mas'uliyat bemor bilan muloqotda sir saqlash, hurmat, va inson qadriyatlarini e'tirof etishda ifodalanadi. Tashkilotlar, davlat idoralari va biznes sub'yektlari ham ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarur. Bunda "korporativ ijtimoiy mas'uliyat" (KIM) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. KIM quyidagilarni o'z ichiga oladi: Atrof-muhitni asrash; Mehnat sharoitlarini yaxshilash; Mahsulot sifati va iste'molchi huquqlarini ta'minlash; Jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish davlat ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali fuqarolar farovonligini ta'minlashi kerak. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ekologik xavfsizlik — bular davlat ijtimoiy mas'uliyatining asosiy yo'nalishlaridir. Davlatning mas'uliyat darajasi jamiyatdagi adolat, tenglik, ishonch va ijtimoiy birdamlik ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Mas'uliyatli fuqarolik jamiyati — bu tartib, barqarorlik va hamjihatlikning asosi. Insonlar o'z burchini his qilgan jamiyatda qonunbuzarlik, beparvolik va korrupsiya kamayadi. Shu bois, har bir fuqaroning ijtimoiy mas'uliyati milliy taraqqiyot uchun strategik ahamiyatga ega. Ijtimoiy mas'uliyat ma'naviyat bilan

bevosita bog'liq. Mas'uliyatli shaxs — bu o'z vijdoniga sodiq, halol, pok, mehr-shafqatli insondir. Jamiyatda bunday insonlar ko'paysa, ijtimoiy muhit yanada sog'lomlashadi. Shuningdek, diniy qadriyatlar ham ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi. Qur'onda va boshqa muqaddas manbalarda insonning o'z amallari uchun javob berishi, adolat, halollik, saxovat kabi fazilatlar alohida ta'kidlanadi. Yosh avlodda mas'uliyat hissini shakllantirish — jamiyat kelajagini belgilovchi muhim jarayondir. Bugungi kunda raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muloqot yoshlarda individualizmni kuchaytirayotgan bir paytda, ularda jamoaviylik va empatiya tuyg'usini rivojlantirish zarur. Maktab va oliy ta'lim tizimi, oilaviy tarbiya, jamoaviy loyihalar — bular ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalovchi asosiy vositalardir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish uchun: Refleksiya (o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish); Empatiya mashqlari; Jamoaviy faoliyatga jalb etish; Maqsad qo'yish va javobgarlikni baholash metodlari samarali hisoblanadi. Mas'uliyatni rivojlantirishda psixologik maslahatlar, treninglar, va o'zini anglash mashqlari muhim rol o'ynaydi. Mas'uliyat — o'z hayotingni boshqarishdir. Odam o'z hayotidagi holatlar uchun bahona qidirishni to'xtatgan paytdan boshlab, u ijtimoiy jihatdan yetuk bo'la boshlaydi. Har bir qaror — bu jamiyatga ta'sir. Shuni anglashdan mas'uliyat boshlanadi. Mas'uliyat — bu kuzatilmaydigan paytda ham to'g'ri ish qilish. Jamiyatni o'zgartirish ulkan ishlar bilan emas, kichik odatlar bilan boshlanadi: so'zda halollik, va'daga sodiqlik, boshqaga hurmat, tabiatga mehr. Mas'uliyat — faqat “men javobgarman” degan qat'iyat emas, balki boshqalar og'rig'ini his etishdir. Har bir inson o'z atrofiga mehr bilan qaray boshlasa, jamiyat o'z-o'zidan tuzaladi. Bir insonni tinglash, yordam so'raganga javob berish, kimnidir tushunishga harakat qilish — bu ham ijtimoiy mas'uliyatdir. Mas'uliyatli inson tanqid qilmaydi — harakat qiladi. Ko'pchilik “Jamiyat buzilgan”, “Odamlar o'zgarmaydi” deydi. Lekin aslida o'sha odamning ichki mas'uliyatsizligi jamiyatdagi befarqlikni ko'paytiradi. O'zingni tarbiyala — shunda boshqalar o'zgaradi. Mas'uliyatli inson o'z ustida ishlaydi: hissiyotini boshqaradi, so'zini o'ylab aytadi, shoshilinch hukm chiqarmaydi. Bu ichki intizom ijtimoiy ongni mustahkamlaydi. Halollik, adolat, va'daga sodiqlik, sadoqat —

bu qadimiy, ammo doimiy kuchli qadriyatlar. Ijtimoiy mas'uliyat bu qadriyatlarni kundalik qarorlar bilan himoya qilishdir. Axloqiy mezon — bu insonni jamiyatdagi eng barqaror tayanchga aylantiradi. Agar jamiyatni o'zgartirmoqchi bo'lsak — o'zimizdan boshlashimiz kerak. Agar boshqalar mas'uliyatsiz bo'lsa — biz baribir mas'uliyatli bo'lishimiz kerak. Chunki haqiqiy o'zgarish jim, lekin barqaror yurakdan boshlanadi.

Xulosa

Ijtimoiy mas'uliyat — bu insoniyat taraqqiyotining, jamiyat barqarorligi va axloqiy yuksalishining asosi. U shaxsning o'zini jamiyatning ajralmas qismi sifatida anglashini, o'z harakatlarining oqibatlarini baholay olishini ta'minlaydi. Bugungi kunda ijtimoiy mas'uliyat faqat shaxsiy fazilat emas, balki global ehtiyojga aylangan. Ekologiya, iqtisod, siyosat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarida mas'uliyatli qarorlar qabul qilinmas ekan, jamiyat barqarorligi izdan chiqadi. Shu bois, har bir inson, tashkilot va davlat o'z mas'uliyatini chuqur his etib, uni amaliy faoliyatda namoyon etishi lozim. Ayniqsa, psixologlar, pedagoglar, rahbarlar va yoshlar ijtimoiy mas'uliyat madaniyatini ongli ravishda shakllantirishda yetakchi ro'l o'ynashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch". — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Abduqodirov A. "Ijtimoiy psixologiya asoslari". — Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. Maxsumov M. "Falsafa asoslari". — Toshkent: Fan, 2012.
4. Bekmuradov R. "Inson va jamiyat: sotsiologik tahlil". — Toshkent: Iqtisod, 2017.
5. <https://share.google/GtSykiVGUJ6iwATNA>
6. <https://president.uz/oz/lists/view/856>
7. <https://share.google/5Y5tZhCReJDt02F7>